

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SOMATIZMNING QO‘LLANILISHI

Sayfullayeva Xabiba To‘lqin qizi

O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti IV bosqich talabasi

sayfullayevaxabiba64@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada biz o‘zbek va ingliz tillarida, xususan mazkur ikki tilda mavjud maqol, topishmoq va iboralarda qo‘llanilgan frazeologik birlik hisoblanmish somatizm va uning xususiyatlari, shakli va qo‘llanilishini ikki tilda solishtirib, qiyosiy tahlil qildik.

Kalit so‘zlar: somatizm, frazeologik birlik, maqol, topishmoq, xalq og‘zaki ijodi.

Key words: somatism, phraseological unit, proverb, riddle, folklore.

KIRISH

Bilamizki, hozirgi kundagi zamonaviy tilshunoslikda o‘rganilayotgan muamolar talaygina. Bu muamolarning barchasi insoniyat omili bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganiladi. Qadimdan xalq og‘zaki ijodi insoniyat uchun xizmat qilgan desak mubolaga bo‘lmaydi. Minasovning yozishicha “Til madaniyat ko‘zgusi bo‘lib, u nafaqat insoniyatni o‘rab turgan dunyoni aks ettiradi, balki real sharoitlari, yani uning mentaliteti, milliy harakteri, turmush tarzi, an‘analari, urf-odatlar, axloq qoidalari tizimi, munosabati, dunyo qarashini ham aks ettiradi”¹ deb takidlaydi. Madaniyatlararo muloqot tildagi muamolarning kelib chiqishiga va kerakli yechimlarni topishga tilning leksik tarkibini o‘rganish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqdadir. Tildagi maqollar, matallar, topishmoqlar so‘z ko‘rkini oshiradi, an‘ana va qadiryatlarni ifodalaydi, tarbiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi, nutqning tasirchanligini va ravonligini oshiradi, avlodlarning o‘tmishidan va madaniyatidan ma‘lumot beruvchi xalq og‘zaki ijodining uklan boyligi hisoblanadi.

¹ Хаджумян. Б.С. – Соматические Фразеологизмы – Издательство ЕГУ. Ереван, 2019

ASOSIY QISM

Tilni inson omillari bilan bog‘lab o‘rganishda somatizim juda katta yordam beradi. Shuningden somatizim atamasi yunoncha «soma» so‘zidan olibgan bo‘lib, «tana» degan ma‘noni bildiradi. Bu atama jamiki tilda uchrashi mumkin, chunki har bir tilda tana a‘zlarini ifodalaydigan so‘zlar bor. Muhim jihatlaridan biri, somatizimlar frazeologiyani eng qadimgi turlaridan bir va eng ko‘p ishlatiladigan turi hisoblanadi. Frazeologik birlik somatizim ilk bor eston tili tadqiqotchisi F Vakk tomonidan qo‘llangan bo‘lib, uning takidlashicha “Somatizimlar frazeologiyani eng qadimgi qatlamlaridan biriga tegishli va har qanday so‘z boyligining eng ko‘p ishlatiladigan qismini tashkil qiladi”¹. Somatizim nafaqat insonlarning, balki hayvonlarning ham xulq-atvorlarini kuzatishga asoslangan metoforik yoki metonimik asosidir. Bu soha xalqning madaniyati va qadiryatlari bilan yaqindan tanishish uchun xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismidir. Falsafadan ham ma‘lumki inson hayotining dastlabki qisimlaridan boshlab o‘zining tana a‘zolari bilan hayotni anglashni boshlaydi. Misol uchun kulishi, yig‘lashi, ingrash, uhlashi, turishi va boshqalar. Sovet va rus tilshunosi Viladimer Gakning yozishicha « Inson – egosentirkidir u o‘zida olam qiyofasini aks ettiradi va u o‘zini olam markazida ko‘radi »². Somatizimlar leksemalardir, ular so‘z tarkibining asil nomi emas, balki tananing bir qismini va unga o‘xshashlikni bildiruvchi leksemdir. Somatizim, somatik frazeologik birlik yoki somantik frazeologik komponent deganda imo -ishora, mimika, inson tanasining psixosimantikasi, yuz ifodasi, ishoralari tushuniladi.

Inson psixosimantikasi: “burnigiz bilan qoling” iborasining (stay with your nose) ma‘nosi chindan ham hohlagan narsasi bilan qolish nazarda tutilgan. Bu yerda burnigiz (your nose) somatizim bo‘lib kelmoqda u inson tana a‘zosi bo‘lib xohish ma‘nosida qo‘llanilgan.

Yuz ifodasi: “qovog‘ni solmoq” iborasi (frown) ma‘nosi norozilik, hafa bo‘lish. Bu iborada qovoq somatizim bo‘lib kelmoqda.

¹ Вакк Ф.О. – Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Таллин, 1964

² Гак В.Г. - Языковые преобразования. – М.: Школа Языки русской культуры 1990

Ishora:” battar bo‘l” iborasi (it serves you right!) ma’nosi masharalash, kinoya.

Barcha tilda uchragani kabi Ingiliz va O‘zbek tilida ham somatizimlar keng qo‘laniladi. Buni biz kundalik hayotimizda ko‘p ishlatadigan maqollar va topishmoqlarda ko‘rib chiqamiz. Folklorshunos V E Gusev takidlashich “Maqol va topishmoq janirlarini epik tur tarkibida o‘rganishni zarur hisoblaydi”¹, shuning uchun shu sohaga murojat qildik.

Maqol - qisqa va londa obrazli va obrasiz mantiqiy tugallangan chuqur ma’noli hikmatli ibora. Maqollar xalq hayotidan darak beruvchi, real hayotga asoslangan, insonlarning nutqini boyituvchi va uning ravonligini, tasirchanligini oshiruvchi va o‘tmishdan so‘zlovchi omildir. Ingiliz adabiyotida maqollar asosan xalqning jamyatga bo‘lgan munosabati aks etgan va ko‘p hollarda ular somatizimlardan foydalanishgan va ularni o‘zbek tiliga tarjima qilish biroz qiyinchilik tug‘diradi, chunki ular o‘z ma’nosida qo‘lanilmagan. Misol uchun ;

“Tiling emas qilgan ishing gapirsin” maqoli ingliz tiliga

“Actions speak louder than words” deb tarjima qilinadi. Bu yerda til va gapirmoq so‘zlari somatizim bo‘lib kelmoqda ,til insoning tana a’osi va gapirsin bu yerda o‘z ma’nosida emas gapirish emas bajarish, amalda tadbqiq etish ma’nolarida kelmoqda

Bu maqolda asosan kinoya yashringan ma’nosi aytilgan narsan gapligicha qolmasdan amalda bajarilishi kerak, aytish oson bajarish muhumliligi nazarda tutilgan.

Shakil, vaziyfasi, ish-harakati va holati jihatida bir-biriga o‘xshash ikki predmet, narsa va hodisadan jumboqlanib, ikkinchisiga xos, o‘xshash belgilar asosida uni topishga mo‘ljallab she’riy yolki nasriy tuzilishda berilgan savol yoki topshiriq topishmoq deb yuritiladi.”² Topishmoqning boshqa nomlari ham bor topmacha, chiston.

Always runs but never walks,

Often murmurer, never talks,

Has a bet but never sleeps,

Has a mouth but never eats? (A river) ingliz topishmog‘i o‘zbek tiliga

Har doim yuguradi, lekin hech qachon yurmaydi,

¹ Safarov O. – O‘zbek xalq og‘zaki ijodi – Musiqa Nashriyoti. Toshkent, 2010

² Safarov O. - O‘zbek xalq og‘zaki ijodi - Musiqa Nashriyoti. Toshkent, 2010

Ko‘pincha shivirlaydi, hech qachon gapirmaydi,

To‘shagi bor, lekin uhlamaydi,

Og‘zi bor, lekin hech qachon yemaydi? deb tarjima qilinadi. Bu topishmoqning birinchi misrasida yugurmoq (run) va yurmaslik (never walks) so‘zlari somatizimdir, chunki bu yerda yugurmoq so‘zi daryoning shoshib oqishiga ishora qilmoqda, ikkinchi misradagi shivirkamoq (murmurer) va hech qachon gapirmaslik (never talks) so‘zlari somatizm bo‘lib kelmoqda, bunda shivirlash daryoning oqqanda chiqaradigan ovozini tariflab, hech qachon gapirimaslik topishmoqni jumbog‘ini topishni osonlashtirmoqda. Uchinchi misradagi uhlamaslik (never sleep) va to‘rtinchi misradagi ogiz (mouth) va yemaslik (never eat) so‘zlari somatizim bo‘lib, insonga hos belgilar, daryoga nisbatan qo‘llanilib ma’no ko‘chishi yuzaga kelyabdi, bu so‘zlar topishmoqda metafora bo‘lib ham kelmoqda. Bu belgilar daryoda bo‘lmay turib, insonga hos belgilarni o‘zida jamlab topishmoqni topish uchun osonlik yaratmoqda. Bundan ko‘rinadiki somatizim san’ati juda mohirk bilan qo‘llanilgan bu topishmoqda.

Xulosa: qilib shuni aytish mumkumki bugungi maqolamizda ingliz va o‘zbek tilida somatizimning ishlatilishini qisqa bo‘lsada ko‘rib chiqdik. Inson qaysi millatdan bo‘lishidan qat’iy nazar ular bir-biri bilan muloqot qilishadi, bu muloqot tasirchan, tushunarli, qisqa varavon bo‘lishi muhimdir. Bundan ko‘rinadiki somatizimlar bizning kundalik hayotimiz uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini bilib oldik. Somatizim nutqimizning tasirchanligini va ravonligini oshirish, gaplarning qisqa tushunarli bo‘lishligini taminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хаджумян. Б.С. – Соматические Фразеологизмы – Издательство ЕГУ. Ереван, 2019
2. Вакк Ф.О. – Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Таллин, 1964
3. Гак В.Г. - Языковые преобразования. – М.: Школа Языки русской культуры 1990
4. Safarov O. – O‘zbek xalq og‘zaki ijodi – Musiqa Nashriyoti. Toshkent, 2010